



XALQ DEPUTATLARI QIZILTEPA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 16-fevral

VI-17-10-5-72-K/26

Qiziltepa tumani

Qiziltepa tumani hududida 2026-yilda suv resurslaridan foydalanganlik hamda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining tegishli moddalariga hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda "Resurs soliqlari va mol-mulk solig'ini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6121-sonli farmonining 4-bandiga muvofiq, tuman Soliq inspeksiyasining "tuman hududida 2026-yilda suv resurslaridan foydalanganlik hamda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar" loyihasi bo'yicha kiritgan taklifi muhokama qilinib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 6- va 24-moddalari hamda Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasining 2026-yil 11-fevraldagi DKQ03-01/7-26-sonli qaroriga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda "Resurs soliqlari va mol-mulk solig'ini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6121-sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining tegishli moddalariga hamda tuman Soliq inspeksiyasining 2025-yil 13-dekabrda 16-18078-sonli xati ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda 2026-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun Soliq kodeksining 445-moddasi bilan o'rnatilgan soliq stavkalariga nisbatan qo'llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 1-ilovaga muvofiq;

2026-yil uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun Soliq kodeksi bilan o'rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo'llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari tuman Kengashiga 2026-yilning 20-dekabriga qadar keyingi soliq davri uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari uchun soliq stavkalarini belgilangan tartibda soliq organlariga kiritsin.

4. Tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari (A.Umedov) hamda "Yangi Qiziltepa" gazetasi tahririyati (Sh.Shomurodov)ga:

tuman bo'yicha 2026-yil uchun soliqlarni hisoblashda qo'llaniladigan eng kam qiymat bo'yicha ma'lumotlarni "Yangi Qiziltepa" gazetasida hamda tuman hokimligining rasmiy veb saytida e'lon qilsin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari (N.Hayitov) hamda xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (Sh.Islomov) zimmlariga yuklansin.

Kengash raisi



**BOBOJONOV
ULUG'BEK
RAXIMOVICH**

Xalq deputatlari Qiziltepa tumani
Kengashining
2026-yil 16-fevraldagi
VI-17-10-5-72-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Qiziltepa tumani bo'yicha Suv solig'i uchun soliq stavkasi to'g'risida

so'mda

T / R	2025-yil								2026-yil uchun taklif 0,7 gacha (1,1 barobargacha oshiruvchi koeffitsent qo'llanilgan)								O'sish (%)							
	Yer usti				Yer osti				Yer usti				Yer osti				Yer usti		Yer osti					
	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTLar	Sanoat korxonalar	Avtotransport vositalarini yuvish	Alkagolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTLar	Sanoat korxonalar	Avtotransport vositalarini yuvish	Alkagolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTLar	Sanoat korxonalar (749 so'm)	Avtotransport vositalarini yuvish (80 250 so'm)	Alkagolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari) (40 600 so'm)	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTLar (910 so'm)	Sanoat korxonalar (910 so'm)	Avtotransport vositalarini yuvish (16 050 so'm)	Alkagolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari) (40 600 so'm)	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTLar (%)	Sanoat korxonalar (%)	Avtotransport vositalarini yuvish (%)	Alkagolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari) (%)	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTLar (%)	Sanoat korxonalar (%)	Avtotransport vositalarini yuvish (%)	Alkagolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari) (%)
1	700,0	700,0	75 000,0	38 000,0	850,0	850,0	15 000,0	38 000,0	823,9	823,9	88 275,0	44 726,0	1 001,0	1 001,0	17 655,0	44 726,0	117,7	117,7	117,7	117,7	117,8	117,8	117,7	117,7

Xalq deputatlari Qiziltepa tumani
Kengashining
2026-yil 16-fevraldagi
VI-17-10-5-72-K/26 -son qaroriga
2-ilova

**Qiziltepa tumani bo'yicha Yer qaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi to'g'risida
MA'LUMOT**

so'mda

T/R	2025-yil							2026-yil uchun <i>(1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsent qo'llanilgan)</i>							O'sish (%)						
	Arralanadigan xarsangtosh	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidird, ganch	G'isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	qurilish qumi, qumtoshlar qumshag'al aralashmasi	Arralanadigan xarsangtosh (6591 so'm)	Tabiiy bezaktoshdan bloklar (10 700 so'm)	Marmar (21 400 so'm)	Granitlar (32 100 so'm)	Gips toshi, gips va angidird, ganch (17 066 so'm)	G'isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar (4 943 so'm)	qurilish qumi, qumtoshlar qumshag'al aralashmasi (5 350 so'm)	Foiz	Foiz	Foiz	Foiz	Foiz	Foiz	Foiz
1	6 160,0	10 000,0	20 000,0	30 000,0	15 950,0	4 620,0	5 000,0	7 250,1	11 984,0	23 540,0	35 952,0	18 772,6	5 684,5	6 420,0	117,7	119,8	117,7	119,8	117,7	123,0	128,4